



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY TARAQQIYOT  
VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
“LOYIHALAR VA IMPORT KONTRAKTLARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH MARKAZI”  
DAVLAT UNITAR KORXONASI**

2022-yil 10 may № 14/01-004-3324 100084, Toshkent, Amir Temur shoh ko‘chasi, 107-B

**Farg‘ona viloyati  
Rishton tumani hokimligi**

**Texnik topshiriqning ish hajmlari va ularning narx parametrlari  
qismida o‘tkazilgan kompleks ekspertiza natijalari bo‘yicha  
XULOSA**

<b>Loyiha nomi</b>	Farg‘ona viloyati Rishton tumani To‘da MFY xududida joylashgan “To‘da MMTP” va “Keramika zavodi” xududlarida tashkil etilayotgan KSZ uchun tabiiy gaz tarmog‘i tortish.
<b>Buyurtmachi arizasining raqami va sanasi</b>	2022-yil 7-maydagi 01-26/761-sonli ariza.
<b>Buyurtmachi</b>	Farg‘ona viloyati Rishton tumani hokimligi.
<b>Loyihani amalga oshirish uchun asos</b>	Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2022-yil 26-yanvardagi VI-40-2-11-0-L/22-sonli qarori. Farg‘ona viloyati Rishton tumani xokimining 2022-yil 7-fevraldagi 18-11-158-F/22-sonli Farmoyishi.
<b>Moliyalashtirish manbai</b>	Mahalliy byudjet mablag‘lari xisobidan.
<b>Loyiha hujjatlari bo‘yicha ekspert xulosasi</b>	O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi “Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi” DUK Qashqadaryo viloyati filialining 2022-yil 21-apreldagi 37764-sonli yig‘ma ekspert xulosasi.
<b>Obyektning chegaraviy narxi</b>	3 219 845 754 so‘m QQS bilan, 2 799 865 873 so‘m QQS siz.
<b>Ekspertiza o‘tkazish uchun asos</b>	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-yanvardagi PQ-3464-sonli va 2018-yil 20-fevraldagi PQ-3550-sonli qarorlari.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" DUK "Farg'ona viloyati Rishton tumani To'da MFY xududida joylashgan "To'da MMTP" va "Keramika zavodi" xududlarida tashkil etilayotgan KSZ uchun tabiiy gaz tarmog'i tortish" obyektini bo'yicha texnik topshiriqning ish hajmlari va ularning narx parametrlari qismida o'tkazilgan kompleks ekspertiza natijalari bo'yicha e'tirozlar mavjud emasligi va davlat xaridlarini belgilangan tartibda o'tkazish mumkinligini ma'lum qiladi.

Shu bilan birga, obyektning QQSni hisobga olgan holda 3 335 million so'mni tashkil etadigan chegara qiymati Xalq deputatlari Farg'ona viloyati Kengashining 2022-yil 26-yanvardagi VI-40-2-11-0-L/22-sonli qarori 1-Ilovasida ko'zda tutilgan kapital qo'yilmalar uchun belgilangan 304 million so'm miqdordan oshganligi ma'lum bo'ldi. Shunga ko'ra xaridlarni amalga oshirishdan avval moliyalashtirish masalasini yechish maqsadga muvofiq.

Buyurtmachi davlat xaridlarini maxsus axborot portalida, ommaviy axborot vositalarida va rasmiy veb-saytlarda tender (tanlov) o'tkazish to'g'risidagi e'lonni joylashtirish orqali qurilish pudrat tashkilotlarini keng jalb etilishini ta'minlashi kerak.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi 261-sonli "Markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar hisobidan amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o'tish to'g'risida"gi qarorining 1-ilovasi 4-bandiga muvofiq buyurtmachi tomonidan aniqlangan boshlang'ich qiymati tanlov savdolari (tenderlar) o'tkazishda yo'nalish hisoblanadi va pudrat shartnomasi (kontrakt) tuzish uchun asos bo'lib xizmat qilmaydi. Obyektning shartnoma qiymati o'tkazilgan tanlov savdolari (tenderlar) natijalari bo'yicha aniqlanadi.


O'z navbatida buyurtmachi haqqoniylik, ratsionallik, iqtisod tamoyillariga rioya qilish, moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan xaridlarni amalga oshirishda shaffoflik va korrupsiyaga yo'l qo'yilmasligini ta'minlashga javobgardir.

**M. Allabergenov**

B. Xusanov

G'. Shodiyev

L. Dusmuxamedov





*Handwritten signature*

2022й

## **Бажарувчи ташкилотни танлаб олиш учун**

## **ТАНЛОВ ХУЖЖАТЛАРИ**

**Фаргона -2022**

### **Танлов хужжатларининг мазмуни:**

**I. Танлов иштирокчилари учун йўриқнома**

**II. Техник қисм**

**III. Нархлар қисми**

# ТАНЛОВ ИШТИРОКЧИСИ УЧУН ЙЎРИҚНОМА

## 1. ТАНЛОВ ПРЕДМЕТИ ВА ТАХМИНИЙ ҚИЙМАТИ

1. Танлов предмети: Фаргона вилояти Риштон туман Туда МФЙ худудида жойлашган Туда ММТП ва Керамика заводи худудларида саноат зонасига газ тармогини тортиш хизмати

1.2. Танлов қиймати 3 219 845 754 (Уч миллиард икки юз ун туккиз миллион саккиз юз кирк беш минг етти юз эллик турт ) сум ..

1.3. Махсулот бўйича Техник топшириқ танлов хужжатларининг техник қисмда илова қилинган.

**Ушбу танлов якунлари буйича**

**ғолиб чиққан бажарувчи ташкилот билан шартнома тузилади.**

1.4. Ишларни бажариш муддати шартнома имзоланган кундан бошлаб 2022 йил охиригача .

1.5 Ишларни бошлаш муддати– аванс маблағи ўтказилган кундан бошлаб ҳисобланади.

## 2. ТАНЛОВ ТАШКИЛОТЧИЛАРИ

2.1. «ФАРГОНА ВИЛОЯТ РИШТОН ТУМАН ХОКИМЛИГИ

(бундан кейин-“Буюртмачи” деб аталади) -танлав ташкилотчиси ҳисобланади.

“Буюртмачи” манзили:, Риштон т

Эл.адрес:

2.2. Танлов “Буюртмачи” томонидан танловлар ўтказиш бўйича тузилган Харид комиссияси томонидан ўтказилади

2.3. Танлов РИШТОН ТУМАН ХОКИМЛИГИ “Буюртмачи” томонидан тузилган Харид комиссияси томонидан қонунда белгиланган тартибда, белгиланган муддатларда ўтказилади.

## 3. ТАНЛОВ ИШТИРОКЧИЛАРИ

3.1. Танловда мулкчилик шаклидан қатъий назар шу мазмунда иш ва хизматлар кўрсатишга ихтисослашган, камида 5 йил тажрибага эга бўлган барча юридик мақомга эга бўлган ташкилотлар иштирок этиши мумкин.

3.2. Танловда иштирок этиши учун талабгорларга қуйидаги малакавий талаблар қўйилади:

танлов предмети қийматининг камида 20 фоизи миқдоридаги айланма маблағларининг ёки кўрсатиб ўтилган маблағларни беришга банк кафолатномаси, ишлар (хизматлар)ни бажариш учун зарур бўлган меҳнат ресурслари ва мутахассисларнинг мавжудлиги;

шартномалар тузиш юзасидан фуқаролик-муомала ҳуқуқий лаёқат ва ваколатлар;

танлов объектига ўхшаш объектларда ишлаш тажрибасининг мавжудлиги;

ўз кучлари билан илгари бажарилган иш ҳажмлари тўғрисидаги маълумотлар;

танлов объектида ўз кучлари билан бажариладиган ишларнинг мўлжалланаётган ҳажми

(50 фоиздан кам бўлмаган ҳолда);

Низом маблағи миқдори.

3.3. Агар танлов предмети бўлган ишлар (хизматлар)ни бажариш билан боғлиқ фаолият қонунчиликка биноан лицензиялаштириши зарур бўлса, танловда иштирок этиш учун белгиланган тартибга мувофиқ тегишли лицензияга эга бўлган талабгорларга рухсат этилади.

3.4. Қўйидаги талабгорларга танлов жараёнларида иштирок этишга рухсат берилмайди:

қайта ташкил этилиш (ажратилиши, қўшилиш), тугатиш ёки банкротлик арафасида турганлар; мол-мулки мусодара қилинганлар, ҳамда муассислик келишув, молиявий иштирок, холдинг ва бошқа шаклда ифодаланган бевосита ташкилий-ҳуқуқий ёки бир бирига молиявий қарамлиги мавжудлар.

#### **4. ТАНЛОВДА ИШТИРОК ЭТИШ УЧУН ТАКЛИФЛАРНИ ТАКДИМ ЭТИШ**

4.1. Иштирокчилар ўз таклифларини электрон кўринишда (etender.uzex.uz ) порталига электрон танловлар ўтказиш учун жойлаштиришли лозим.

4.2. Танлов учун таклифлар ва унга тегишли иловалар ва ҳужжатлар, маълумотлар “Буюртмачи” ва “Иштирокчи” ихтиёрига кўра ўзбек ёки рус тилида такдим этилиши мумкин.

4.3. танлов ҳужжатларида қуйидагилар такдим этилиши лозим:

- Техник қисм, “Буюртмачи” томонидан қўйилган техник талабларни ва бажариладиган иш ва хизматлар кўрсатилиши керак;

- Нархлар қисми, Танлов шартларида белгиланган нархлар доирасида, хизматларни бажариш муддатлари, тўловлар тартиби ва якуний тўловлар ва бошқа боғлиқ кўрсаткичлар кўрсатилган бўлиши керак.

Танлов иштирокчилари ҳар бир таклифларни яхлит ҳолда тикилган, номерланган, ваколатли шахс имзоси ва муҳр билан тасдиқланган ҳолда ёки ҳар бир варағини муҳрлаб тасдиқланган ҳолда такдим этишлари лозим.

4.4. Қуйидаги ҳужжатлар тўлиқ бўлиши талаб этилади:

Техник ва нархлар бўйича қуйидаги таклифлар:

- Техник ҳужжатлар руйхати (брошюралар, техник паспорлар ёки ўхшаш ҳужжатлар руйхати илова қилинади);

4.5. Танлов иштирокчиси:

- фақат битта таклиф бериши мумкин;

- такдим этилаётган ҳужжатларнинг ҳақиқийлиги ва маълумотларнинг ҳаққонийлигига тўлиқ жавобгар бўлади;

- таклифлар бериш муддати тугагунга қадар ўз таклифларини қайтариб олиш ёки ўзгартириш киритиш ҳуқуқига эга.

#### **5. ТОМОНЛАРНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИ**

5.1. Давлат харидлари тўғрисидаги Қонун талабларини бузган шахслар қонунчиликда белгиланган тартибда жавобгар бўладилар

5.2. Харид комиссияси давлат харидлари бўйича қонунчиликда белгиланган тартибда голиб иштирокчиларни аниқлаш ва асосланган қарор қабул қилиш бўйича мажбурдир.

5.3. Танлов иштирокчиси такдим этилган барча ҳужжатларни ҳақиқийлиги ва тўғрилиги жавобгардир. Голиб иштирокчи деб топилгандан сўнг қонунчиликда белгиланган тартибда давлат буюртмачиси билан ўрнатилган тартибда ва муддатларда шартнома тузишга мажбурдир.

#### **6. БОШҚА ШАРТЛАР**

7.1. Давлат буюртмачиси танлов ҳужжатларига ўзгартишлар киритиш тўғрисида танловда иштирок этиш учун таклифлар бериш муддати тугайдиган санадан камида уч кун олдин қарор қабул қилишга ҳақли. Товарни (ишни, хизматни) ўзгартиришга йўл қўйилмайди. Бунда ушбу танловда таклифлар бериш тугайдиган муддат танлов ҳужжатларига ўзгартишлар киритилган санадан эътиборан камида ўн кунга узайтирилиши керак. Шу билан бир вақтда, агар эълонда кўрсатилган ахборот ўзгартирилган бўлса, танлов ўтказиш тўғрисидаги эълонга ўзгартишлар киритилади.

7.2. Танлов иштирокчиси танлов ҳужжатлари қоидаларини танлов ўтказиш учун эълонда белгиланган шаклда тушунтириш талаби билан давлат буюртмачисига сўров юборишга ҳақли. Сўров келиб тушган санадан эътиборан икки иш куни ичида давлат буюртмачиси, агар мазкур сўров давлат буюртмачисига таклифлар бериш муддати тугайдиган санадан камида икки кун олдин келиб тушган бўлса, ушбу сўровга белгиланган шаклда жавоб юбориши шарт. Танлов ҳужжатларининг қоидаларига доир тушунтиришлар уларнинг мазмун-моҳиятини ўзгартирмаслиги керак.

7.3. Таклифларни кўриб чиқиш ва баҳолаш баённомаси харид комиссиясининг барча аъзолари томонидан имзоланади ҳамда ундан олинган кўчирма у имзоланган кундан эътиборан уч иш куни ичида махсус ахборот порталида эълон қилинади.

7.4. Танловнинг исталган иштирокчиси таклифларни кўриб чиқиш ва баҳолаш баённомаси эълон қилинганидан сўнг давлат буюртмачисига танлов натижаларига доир тушунтиришларни тақдим этиш тўғрисида сўров юборишга ҳақли. Давлат буюртмачиси бундай сўров келиб тушган санадан эътиборан уч иш куни ичида танлов иштирокчисига тегишли тушунтиришларни тақдим этиши шарт.

7.5 Танлов натижалари бўйича шартнома танлов ҳужжатларида ва ўзи билан шартнома тузилаётган танлов иштирокчиси томонидан берилган таклифда кўрсатилган шартлар асосида тузилади

1.3. Мақсадот - бўйича танлов ҳужжатларининг текшик қилинади

1.4. Натижани баҳолаш шартнома имзоланган кундан беш кун ичида

1.5. Натижани баҳолаш шартнома имзоланган кундан беш кун ичида

## 2. ТАНЛОВ ТАШКИЛЛОТЧИЛАРИ

2.1. «АВРАТОЛА ВЕНДОТ РИШТО ТУМАН ХОЖИЛИГИ» (бўйича келим-бўришлар, тақдим этиш шартнома имзоланган кундан беш кун ичида)

2.2. Танлов "Буюртма" томонидан танлов натижаларига доир тушунтиришларни тақдим этиш тўғрисида сўров юборишга ҳақли.

2.3. Танлов РИШТО ТУМАН ХОЖИЛИГИ "Буюртма" томонидан танлов натижаларига доир тушунтиришларни тақдим этиш тўғрисида сўров юборишга ҳақли.

## 3. ТАНЛОВ ИШТИРОКЧИЛАРИ

3.1. Танлов иштирокчилари танлов шартнома имзоланган кундан беш кун ичида

3.2. Танлов иштирокчилари танлов шартнома имзоланган кундан беш кун ичида

3.3. Танлов иштирокчилари танлов шартнома имзоланган кундан беш кун ичида

3.4. Танлов иштирокчилари танлов шартнома имзоланган кундан беш кун ичида